

**KOMPYUTER TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB
MATEMATIKA FANINI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

¹G.N. G'oyibnazarova, ²G.Umarova

¹Toshket shahridagi Belarus-O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instetuti, ²Jizzax davlat pedagogika universiteti

Ma'lumki, kompyuter texnologiyasidan foydalanib, tashkil etilgan o'qitish va o'quvchilarning olgan nazariy bilimi nazoratini tashkil qilganda, o'quvchiga mo'ljallangan o'quv materialini to'la yetkazish va o'quv fani dasturiga mos o'zlashtirilgan nazariy bilimi, egallangan amaliy ko'nikma va malakalarni bir vaqtning o'zida tez va aniq tekshirish uchun kam vaqt sarflanadi.

Ta'lim jarayoniga informatsion texnologiyalarni jalb qilish dasturlari o'quv metodlarini ko'zlangan maqsadga muvofiq ravishda sifat jihatdan o'zgartirishni, xususan, matematika fanini o'qitish jarayoni samaradorligini oshirishni nazarda tutadi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki o'quv jarayoniga kompyuter texnologiyasini tatbiq etish bu jarayonni kompleks holda avtomatlashtirish imkonini bermoqda. Demak, matematikani o'qitish jarayonida ham kompyuter texnologiyasini qo'llash o'qitish samaradorligini oshiradi.

Kompyuter texnologiyasi yordamida o'qitish har doim pedagoglarning diqqat markazida turgan muammolardan biri bo'lib kelgan. Matematikani o'qitishda kompyuter texnologiyasini tatbiq qilish nafaqat zamonaviy texnika bilan ta'minlanganlikni, balki quyidagi bir necha savollarga ham javob izlashni taqozo etadi [1], [2]:

-matematikani o'qitish sifatini oshirishda qanday informatsion texnologiyalar qo'l keladi?

-matematikani o'qitishni jadallashtirishda o'qitish jarayoniga informatsion texnologiyalarni jalb qilishning qanday usullari qo'l keladi?

-qanday dasturlardan foydalanish matematikani o'qitishda talabalarning ko'rgazmalilikka bo'lgan e'tiborini kuchaytiradi?

Matematikani o'qitishda kompyuter texnologiyasining quyidagi jihatlaridan foydalanish o'z tatbig'ini topadi:

1. Tezlik va ko'pgina hajmdagi ma'lumotni tahlil qila olishi.
2. Ma'lumotlarni grafik ko'rinishda ifodalash imkoniyatiga ega bo'lib, bu jihat uning metodik ahamiyatini yanada kuchaytiradi.
3. Katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlay olishi, ya'ni kerakli jadval yoki formulalarni xotirada saqlay olish imkoniyatiga ega ekanligi.

СЕКЦИЯ 1. Актуальные проблемы информационных технологий и автоматизации

Matematika fanini o'qitish jarayoniga kompyuter texnologiyasining tatbiq etilishi bu kursning tuzilishi va mazmunini takomillashtirish, darsni noan'anaviy usulda tashkil qilish imkonini beradi.

Kompyuter texnologiyasini o'quv jarayoniga tatbiq etish borasida ko'pgina tajriba to'plangan bo'lib, bu tajribalarning ko'rsatishicha o'rgatuvchi dasturlarni tuzishda quyidagi maqsadlarga erishish nazarda tutilishi zarur [3]:

1. O'quv materialining murakkablik darajasini hisobga olib, o'quv jarayoniga individuallashtirilgan va tabaqalashtirilgan holda yondashish.

2. O'z-o'zini nazorat qila olish va bilimlarni umumlashtirish.

3. O'quv materialini berishda ko'rgazmalilikka e'tibor berish.

4. Mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish.

5. Eng samarali yechim topish qobiliyatini shakllantirish.

6. O'zlashtirish sifatini kamaytirmagan holda vaqtni tejash imkoniyati.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, matematikani o'qitishda kompyuter texnologiyasidan foydalanish uchun qo'yiladigan asosiy talablarni keltirib o'tish mumkin:

-o'quv jarayonini individuallashtirishni ta'minlash uchun yetarli darajada kompyuterga ega bo'lish;

-ishchi dasturiga mos keluvchi va bilimlarning rivojlanishini e'tiborga olgan holda tuzilgan o'rgatuvchi dasturning mavjud bo'lishi;

-o'quvchilarning matematikani o'qitishda kompyuterdan foydalana olish darajasi;

-kompyuter texnologiyasi bilan birgalikda o'qitishning boshqa usullaridan (bayon qilish, ko'rgazmalilik va boshqa) ham foydalanish.

Matematikani o'qitishda kompyuter texnologiyasidan samarali foydalanish uchun o'qituvchiga quyidagi talablar qo'yiladi:

-kompyuter texnologiyasini samarali qo'llash mumkin bo'lgan mavzu va topshiriqlarni aniqlash;

-ma'lum bir mavzuni o'qitishda kompyuter texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiqligini baholay olish;

-darsda kompyuter texnologiyasini qo'llash metodikasini aniqlashtirish;

-o'quv jarayoniga kompyuter texnologiyasini tatbiq etishda zaruriy vositalarni aniqlash.

Kompyuter texnologiyasidan dars jarayonida ko'pgina masalalarni yechishga yordam beruvchi didaktik vosita sifatida foydalanish mumkin. O'quv jarayoniga kompyuter texnologiyasini tatbiq qilinishi o'qituvchi va

СЕКЦИЯ 1. Актуальные проблемы информационных технологий и автоматизации

talaba vaqtini tejash, nazorat qilishning obyektiv va individual bo'lishiga imkon beradi. Bundan tashqari, kursni o'qitishda beriladigan ma'lumotlarning ko'pligi ham dars jarayoniga kompyuter texnologiyasini tatbiq etishga bo'lgan talabni tobora ortib borishiga sabab bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев К.Х. др. Геометрия. Экспериментальный учебник с углубленным изучением математики для академических лицеев. - Т.: Шыитувчи, 2002. - 424 с.
2. Гусев В.А. Каким должен быть курс геометрии? // Математика в школе. -Москва, 2002. - №3. - С. 4-8.
3. Митенев Ю.А. Использование информационно-коммуникационных технологий в обучении математике // Среднее профессиональное образование. 2011. № 6. С. 19-20.

PSIXODIAGNOSTIKADA TESTLASHTIRISH MUAMMOLARI

G.A. Rasulova, S.U. Mahmudova

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Psixodiagnostika jamiyatdagi shaxslarni tabiati va qonunlarini psixologik diagnoz qilib o'rganuvchi fan sifatida o'zining amaliy bilimlari bilan yangicha fikrlash va dunyoqarashni shakllantirish jarayoniga ko'maklashib kelmoqda.[1]

Hozirgi kunda psixodiagnostika zamonga xos tarzda yangi bilimlar bilan jadal rivojlanib borayotgan, jamiyat uchun kerak bo'lgan ilmiy fanning amaliy sohasidir. Professional ta'lim yo'nalishi bo'yicha psixologik diagnostikaning metod va usullaridan samarali foydalanish, testlashtirish, testlarni mahalliy muhitga moslashtirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Chunki psixodiagnostika yordamida shaxsning aqliy imkoniyatlari, shaxsiy xususiyatlari, undagi ijtimoiy-psixologik ta'sir omillarini o'rganish orqali, har qanday faoliyat jarayonini to'g'ri rejalashtirish, uchraydigan kamchiliklarni tuzatish, psixologik-pedagogik profilaktika ishlarini olib borish imkoniyatini yaratish mumkin.[2]

Jahonda shaxs psixodiagnostikasi yo'nalishidagi tadqiqotlarda shaxs so'rovnomalarini yaratish texnologiyalari, ularning psixometrik mezonlari, shaxs psixodiagnostikasining tushunchalar apparati va tadqiqot metodlari, davlat xizmati xodimlarini diagnostikasining akmeologik konsepsiyasi, shaxs psixodiagnostikasi va psixosemantikasi, psixologik test usuli va uning takomillashtirish masalalari bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Shaxs